



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 58-67 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH UCHUN IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI



**Abdullayev Bunyod O'tkirovich**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlashi instituti  
“Agrobiznes, buxgalteriya hisobi va raqamli texnologiya”  
kafedrası katta o'qituvchisi.

E mail: [bunyod.abdullayev2792@gmail.com](mailto:bunyod.abdullayev2792@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqola Surxondaryo viloyatida turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili, turistik resurslardan foydalanish samaradorligi indeksi, ko'rsatkichlar dinamikasida ijobiy o'sish, turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlarga qulay sharoit yaratish, mehmonxona va joylashtirish vositalari faoliyati va tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni, kishikar to'grisida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, samaradorlim, sayyohlar, mehmonxona, infratuzilma, baholash, indeks.

**Аннотация:** В статье представлен экономико-статистический анализ развития туристической отрасли в Сурхандарьинской области, индекс эффективности использования туристических ресурсов, положительный рост в динамике показателей, развитие туристической отрасли и создание комфортных условий для туристов, функционирование гостиниц и средств размещения и количество посетивших иностранных граждан, предоставляется персональная информация.

**Ключевые слова:** Туризм, продуктивность, туристы, гостиница, инфраструктура, оценка, индекс.

**Abstract:** In this paper is an economic-statistical analysis of the development of the tourism industry in the Surkhandarya region, the index of the efficiency of the use of tourist resources, positive growth in the dynamics of indicators, the development of the tourism industry and the creation of comfortable conditions for tourists, the operation of hotels and accommodation facilities and the number of foreign citizens who visited, personal information is provided.

**Key words:** Tourism, productivity, tourists, hotel, infrastructure, assessment, index.

**Kirish.** Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini tahliliy hisob-kitoblarga bo'lgan ehtiyoj tabiiydir, chunki ular turizmning resurs salohiyatidan foydalanish sohasida mavjud bo'lgan muammolar ko'lami bo'yicha xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishni talab qiladi va shunga mos ravishda

turistik resurslardan samarali foydalanish bo'yicha aniq usullar, dastaklar hamda vositalarni tanlashning to'g'riligini yanada tasdiqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu turistik resurslardan foydalanish va muhofaza qilish ko'rsatkichlarini tahlil qilishning to'g'ri shakllangan va to'g'ri yo'lga qo'yilgan tizimi bo'lib, u o'rganilayotgan jarayonlarning iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy ta'sirini eng to'g'ri baholash imkonini beradi, bu esa turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, turistik resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish jarayonlarining hozirgi holatini eng xolisona aks ettiruvchi mezonlar asosida samaradorlik ko'rsatkichlarini tanlash, olingan natijalarni to'g'ri talqin qilish, turistik resurslar guruhlarini ilmiy asoslangan tanlash kabi masalalar yuzaga keladi.

Biroq ilmiy fikr taraqqiyotining hozirgi bosqichida turli ierarxik darajalarda turistik resurslardan foydalanish samaradorligini diagnostika qilishning uslubiy vositalari yetarli emas. Kelgusi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim uslubiy asos bo'lib, ma'lum mezonlar bo'yicha turistik resurslardan uch o'lchovli (iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik) aspektida foydalanish samaradorligini belgilaydigan ko'rsatkichlarni uslubiy ishlab chiqish hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turistik resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi eng kam xarajat evaziga eng katta natijalarga erishishdir. Iqtisodiy samaradorlik - vaqtni tejash qonuni harakatining konkret shaklidir. Ishlab chiqarish usulida iqtisodiy samaradorlikning umumiy ko'rsatkichi foyda darajasi hisoblanadi. G'arbning rivojlangan mamlakatlaridagi davlat korxonalarini uchun asosiy maqsad foydani emas, balki har bir xodimga to'g'ri keladigan sof daromadni maksimal darajada oshirishdir, bu esa rentabellik ko'rsatkichidan foydalanish zarurligini istisno qilmaydi [1].

Turistik resurslardan foydalanishning iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik samaradorligining asosiy xususiyati - bir tomondan davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida iste'mol tovarlari (turistik mahsulotlar) ishlab chiqarish hamda tegishli ekologik sharoitlarda muayyan ehtiyojlarni qondirishga va boshqa tomondan ijtimoiy sharoitlarga e'tibor qaratishdir [2]. Ya'ni, turistik resurslar va turizm sub'ektlari ijtimoiy omilning tartibga soluvchi ta'siri ostida ekvivalent qismlar sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Jamoat mehnati va turizm salohiyatining minimal xarajatlari bilan erishiladigan integral samara turistik resurslardan foydalanish jarayonini barqaror rivojlanish tamoyilini ta'minlashga yo'naltirishda muhim omil hisoblanadi [3]. Barqaror rivojlanish talablarini ta'minlashga qaratilgan turistik resurslardan foydalanish samaradorligi mezonini vaqt o'tishi bilan barqaror bo'ladigan yaxlit iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik samarani maksimal darajada oshirish hisoblanadi.

Turistik xizmatlar bozorining rivojlanishiga bir qator omillar ham ta'sir qiladi, xususan: demografik o'zgarishlar, aholining moddiy va ijtimoiy holati, ta'lim darajasi, ta'tilning davomiyligi, kasbiy bandlik va boshqalar. Turizmni rivojlantirish tendensiyasi, umumiy iqtisodiy rivojlanish va fuqarolarning shaxsiy daromadlari o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud. Turistik bozor iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga juda sezgir. O'zgarmas narxlarda shaxsiy iste'molning 2,5% ga o'sishi turizm xarajatlarini 4% ga, shaxsiy iste'molning 5% ga oshishi esa bu xarajatlarni 10% ga oshiradi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash, statistik tahlil ekonometrik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ijtimoiy va ekologik samaradorlik turistik resurslardan foydalanish natijalarining turizm sub'ektlarining asosiy ijtimoiy ehtiyojlari hamda himoya ta'sirini hisobga olgan holda individual turistlarning manfaatlariga muvofiqligi sifatida ifodalanadi. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash shunday ko'rsatkich bo'lib, bu jarayonni iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy jihatlardan tavsiflash imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik imperativ turistik mahsulot ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirining asosiy jihatlaridan biridir. Kuzatilayotgan Surxondaryo viloyatida hozirgi kunda ko'plab turistik ob'ektlar faoliyat yuritib kelmoqda (1-jadval).

## 1-jadval

## Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan turistik ob'ektlar soni (birlikda)

Turistik namoyish ob'ektlari		010	015	020	021	022	2022-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
		4	4	5	7	01	77
shundan,							
1.	Ekoturizm ob'ektlari					0	9
2.	Tibbiy turizm ob'ektlari				0	2	10
3.	Etno turizm ob'ektlari						4
4.	Gastronomik turizm ob'ektlari	8	2	0	0	9	41
5.	Mays turizm ob'ektlari						8
6.	Sport turizm ob'ektlari						5

1-jadval ma'lumotlariga asosan, Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan turistik ob'ektlar sonining jami 2010–yilda 24 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 77 taga oshib 101 tani tashkil etdi. Bu ob'ektlardan 2022-yilda ekoturizm ob'ektlari – 10 ta, tibbiy turizm ob'ektlari – 12 ta, etno turizm ob'ektlari – 4 ta, gastronomik turizm ob'ektlari – 59, mays va sport turizmi ob'ektlari esa 8 tadanga yetdi.

Samaradorlik nazariyasi ta'sir va samaradorlik tushunchalarini aniq ajratib turadi, o'lchovning birinchi natijasini tushunadi, ikkinchisi - ta'sir va uni keltirib chiqargan xarajatlar nisbati. Bu ikki tushuncha o'rtasidagi fundamental bog'liqlik shartli iqtisodiy natija va umumiy kapital qo'yilmalar farqi bilan ifodalanishi va boshqaruv darajasiga qarab milliy hamda turistik korxonaning darajasiga bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, «iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik samara» yangi iqtisodiy kategoriyasining ustun xususiyati turistlarning moddiy va turistik ijtimoiy hamda individual ehtiyojlarini qondirish, bir tomondan, muayyan ehtiyojlarni to'g'ri qondirish istagi bo'lgan yashashga yaroqli ekologik sharoitlar kerak, ikkinchi tomondan, ekologik imperativ iqtisodiy xususiyatlar bilan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi. O'rganilayotgan jarayonlarni baholashga imkon beradigan iqtisodiy komponent bu, sanoatning bozor sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan turistik resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholashdir.

Turistik resurslardan foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etishni takomillashtirishning iqtisodiy samarasi buning natijasida hosil bo'lgan umumiy jamg'armalar (jonli mehnat, kapital qo'yilmalar va boshqalar) bilan tavsiflanadi. Ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida turistik resurslardan foydalanish masalasi faqat kamdan-kam hollarda ko'rib chiqilib, tadqiqotning ekologik va ijtimoiy tarkibiy qismlari yetarlicha ko'rib chiqilmagan. Hozirgi vaqtda turistik resurslardan foydalanish va muhofaza qilish jarayonlarini takomillashtirish, barqaror rivojlanish shartlariga rioya qilish yo'llarini izlash iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaralarni ta'minlaydigan shunday tashkiliy shakllarni izlashni talab qiladi.


Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini dastlab, turistlarni joylashtirish misolida ko'rib chiqishni taklif qilamiz, chunki rivojlangan infratuzilma turizmni rivojlantirish shartlaridan biridir. Samaradorlik indeksini hisoblash uchun biz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik materiallaridan foydalanamiz. Shunday qilib, biz ishonamizki, bu holda samaradorlik ko'rsatkichi mavjud yashash maydoni va doimiy mehmonxona xodimlari sonining ushbu mehmonxonalar va boshqa vaqtinchalik yashash joylarining faoliyatidan olinadigan daromad miqdoriga nisbati bilan belgilanadi (2-jadval).

## 2-jadval

### 2022-yilda Surxondaryo viloyati mehmonxonalari va boshqa aholi yashash joylari faoliyatini hududlar kesimida baholash

Hududlar	Mehmonxonalar va boshqa yashash joylari soni, birliklar	Xonalarning yashash maydoni, ming m <sup>2</sup>	Ishlayotgan mehmonxonalardan olingan daromad, mlrd. so'm	Mehmonxonada doimiy ishlaydigan xodimlar soni, shaxslar
Termiz sh.	21	8,12	25,0	191
Boysun	15	2,01	11,0	60
Denov	6	1,87	12,0	40
Oltinsoy	3	0,24	8,5	20
Sariosiyo	6	0,78	9,0	32
Termiz	4	0,88	9,0	18
Uzun	2	0,41	8,6	9
Sherobod	2	0,45	7,6	11
Sho'rchi	5	0,75	7,6	23

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda eng ko'p mehmonxonalar Termiz shahri (21), Boysun (15), Denov (6), Sariosiyo (6) tumanlarida ro'yxatga olingan. Eng ko'p doimiy mehmonxona ishchilari Termiz shahri hududida - ---191 kishi va Boysun - 60 kishi ro'yxatga olingan. Albatta, mehmonxonalar faoliyatidan olingan daromadning eng yuqori ko'rsatkichi 25,0 mlrd. so'mni tashkil etib bu ham Termiz shahri uchun xos. 2022-yilda turistik resurslardan foydalanish samaradorligi indeksining dinamikasini quyidagi 1-rasmdan ko'rish mumkin.



**1-rasm. Surxondaryo viloyatida turistik resurslardan foydalanish samaradorligi indeksining 2022-yildagi dinamikasi**

Rasmda ko'rsatilgandek, turistik resurslardan foydalanish samaradorligining eng yuqori ko'rsatkichi 1,22 %ni Uzun tumani va 0,91 %ni Sherobod tumani tashkil etadi uchun xosdir. Uchinchi o'rinda Termiz tumani egallab unga ko'ra, 0,77 %ga teng. Oltinsoy va Sho'rchi tumanlarining samaradorlik indekslarining qiymati bir biriga yaqin bo'lib 0,59 % va 0,58 %ni tashkil qiladi. Albatta, bunday ko'rsatkichlarni hisoblashda foydalanilayotgan barcha turistik resurslar e'tiborga olingan bo'lib, Uzun, Sherobod, Termiz, Oltinsoy va Sho'rchi tumanlari uchun xosdir. Bunday aniqlangan ko'rsatkichlar turistik hududlarda nisbatan yuqori samaradorlikni tavsiflaydi. G'ayritabiiy past ko'rsatkichlar Termiz, Boysun va Sariosiyo tumanlariga xosdir, ularning qiymatlari 0,28 %dan 0,47 %gacha bo'lib bu asosan mavjud resurslardan samarali foydalanmaslikni anglatadi.

Iqtisodiy va statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, turistik resurslardan foydalanish samaradorligi ma'lum bir natijaga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida olingan umumiy tejashni tavsiflaydi. Bunday chora-tadbirlar keng spektrda namoyon bo'lgan va turistik hududlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan har qanday turistik resurslarga tegishli bo'lishi mumkin. Turistik resurslarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, turistlarni joylashtirish ob'ektlari - kempinglar va boshqalar shaklida mavjud bo'lgan turistik resurslarning boshqa turlariga e'tibor qaratish va yanada tadqiq etish kerak, infratuzilma tarmoqlari - aloqa yo'llari, savdo, umumiy ovqatlanish, axborot-turistik markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Turistik mahsulotni iste'molchiga targ'ib qilish turistik biznesda juda muhim rol o'ynaydi, chunki u o'z navbatida turistik mahsulotni yoki individual turistik xizmatlarni realizatsiya qilishga tayyorlash va shakllantirishga qaratilgan tadbirlar majmuasini qamrab oladi. Bunday faoliyatga ommaviy axborot vositalarida reklama, televidenie reklamasi, fantastik reklama, mahsulot reklamasi, to'g'ridan-to'g'ri pochta, tashqi reklama, yarmarkalar va boshqalar kiradi. Turistik xizmatlar bozorida iste'molchiga ma'lum bir yo'nalish bo'ylab sayohat qilishda bevosita zarur bo'lgan turistik tovarlar va xizmatlarning oldindan ishlab chiqilgan majmuini o'z ichiga oluvchi aniq tur ko'rinishidagi mahsulot taklif etiladi.

Turizmning asosiy xususiyati uning mintqa, mamlakat va jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir. Surxondaryo viloyatida kirish va chiqish turizmini jadal rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Qulay geosiyosiy mavqega ega bo'lgan Surxondaryo viloyati hududlarining turizm sohasida juda ko'p afzalliklarga xususan: turistik va rekreatsion salohiyatga ega bo'lish, qulay iqlim, madaniy va tarixiy obidalar va juda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan turizm sanoatiga ega. Surxondaryo viloyatida turizmning rivojlanishi iqtisodiyotning transport, savdo, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va turizm kabi tarmoqlariga bevosita bog'liq.

Turizm iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sohasida yetakchi tarmoqlardan biri sifatida qaraladi. Surxondaryo viloyati hududlarida turizmni rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi natijasida kiruvchi mahalliy sayyohlar sonining o'sish sur'ati chet ellik sayyohlardan yuqori bo'ldi (3-jadval).

3-jadval

## Surxondaryo viloyatida turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022	2022-yilda 2010 -yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
Turistlar oqimi jami	57,0	92,0	134,0	346,0	783,0	783
shundan						
Xorijiy sayyohlar, ming kishi	11,0	15,0	24,0	98,0	257,0	257
Maxalliy sayyohlar, ming kishi	46,0	77,0	110,0	248,0	526,0	526
Turizmdan tushgan daromad, mlrd. so'm	26,3	92,5	163,0	259,0	310,0	310
Turizmda sarf xarajat, mlrd. so'm	12,3	50,1	96,8	196,4	220,6	220,6

2022-yilda Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan turistlar oqimi 994,4 ming nafarga teng bo'lib, ulardan 142,3 ming nafari xorijiy va 852,1 nafari mahalliy bo'lib, 2016-yildagi umumiy ko'rsatkichdan 923.6 ming nafarga o'sgan bo'lib mazkur yilda xorijiy sayyoxlar soni atiga 14,6 ming nafarga teng bo'lgan.

Ushbu jadvalni tahlil qilib, biz turistlar oqimining dinamikasini baholash shuni ko'rsatadiki, 2005-2010-yillar davomida turizmni rivojlantirishda salbiy tendensiyalar

kuzatildi, ya'ni kiruvchi turistlar oqimining qisqarishi kuzatildi, bu esa sohaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirilishi natijasida 2010–2022-yillar davomida turistik oqimlarning ijobiy balansini yaratishga olib keldi. Surxondaryo viloyatida sayyohlik kompaniyalari kirish turizmini rivojlantirishga o'z xissasini qo'shmoqda. Xuddi shu kabi, ular mahalliy fuqarolarni xorijiy kurortlarga dam olishga, ko'ngilochar sayohatlarga jo'natishga ham yordam beradilar.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilda Turistlar oqimi 2010-yilga nisbatan 726 ming nafarga oshib 783 ming kishiga yetdi bundan 257 ming kishi xorijiy va 526 ming deyarli 2 barobari mahalliy sayyohlar tashkil etdi. Natijada turizmdan tushgan daromad 2022-yilda 310 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Bu davrga kelib sohada qilingan xarajat miqdori 2010-yilga nisbatan 208,3 mlrd. so'mga oshib 220,6 mlrd. so'mga yetdi.

Hozirgi kunda bu ayniqsa, umra safariga jo'natishni e'tiborga oladigan bo'lsak, ko'plab mamlakatimizdan chiqib ketayotganlar soni mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar sonidan sezilarli darajada oshib borayotganini kuzatish mumkin. Bu esa mamlakatimiz byudjetini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. 2010-2022-yillar davomida Surxondaryo viloyatida turizm industriyasining rivojlanish dinamikasining o'sishi kuzatilmoqda (2-rasm).



**2-rasm. 2010-2022-yillarda Surxondaryo viloyati turizm korxonalarining aholiga ko'rsatgan xizmatlari**

2010-2022-yillarda Surxondaryo viloyati turizm korxonalarining aholiga ko'rsatgan xizmatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unga ko'ra, Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan firma va korxonalar fuqarolarining xorijiy davlatlarga sayohat va ziyoratga chiqishi 103,4 ming nafarga oshib 183 ming kishiga yetdi.

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida 1750 ming o'rinli sayyohlar va dam oluvchilarni joylashtirish uchun 184 birlikdan ortiq muassasalar ularda mehmonxona, oilaviy mehmon uylari hamda xostellarda 7708 o'rinlar soni mavjud, ammo ular xalqaro standartlarga javob beradigan tub o'zgarishlarga muhtoj. Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatining dam olish joylari, madaniyat va me'morchilik yodgorliklari ham yaxshi holatda bo'lishi kerak.

Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo bo'ylab 900 milliondan ortiq xalqaro sayyohlik sayohatlari qayd etilgan, bu 2021-yildagidan ikki baravar ko'p. Biroq, 2022-yilda xalqaro kelganlar soni pandemiyadan oldingi 2019-yilga (1,5 million) nisbatan 37 foizga kamligicha qolmoqda. Yevropa 2022-yilda 2019-yildagi ko'rsatkichning 80 foiziga yetdi (585 million kelgan). Afrika va Amerika qit'alari pandemiyadan oldingi turizmning qariyb 65 foizini tikladi, Osiyo va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa Covid cheklovlari keyinchalik bekor qilinganligi sababli 2019-yil darajasining atigi 23 foiziga yetdi [5].

Turizm turistik iste'mol orqali transport, mehmonxona va restoranlar, chakana savdo, oziq-ovqat sanoati, qurilish, aloqa, sug'urta, dam olish va ko'ngilochar tadbirlar, madaniyat va sport va boshqalarni rivojlantirishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, turizmni rivojlantirish mahalliy iqtisodiyotni jonlantirish, qo'shimcha doimiy va mavsumiy ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi. Surxondaryo viloyati avtomobil yo'llarining holati respublika viloyatlarining ko'plab hududlari orasida yomon reytingga ega, bu esa ko'plab baxtsiz hodisalarga olib keladi.

Mamlakatimizda xorijiy sayyohlar va investorlarni jalb etish maqsadida qishloq va yashil turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari ham ishlab chiqilmoqda. Turizm jadal sur'atlarda rivojlanishi uchun yo'llarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani yaxshilash, yangi lagerlar, qahvaxonalar, yoqilg'i quyish shoxobchalari, yo'l bo'yida restoranlar va dam olish joylari qurish kerak. 2022-yilda turistlar soni yana keskin o'sib, qariyb 5,2 million nafar xorijiy sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurdi va ko'rsatkichlar 2017-yilga (2,7 million nafar) nisbatan 1,9 baravarga o'sdi. O'tgan yili turizm xizmatlari eksporti hajmi ham oshib, 1,6 mlrd dollarga yetgan (2017-yilda 531 million dollar bo'lgan).

Surxondaryo viloyati aholisining demografik tarkibini yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilsak, mamlakat bo'ylab sayohat qiluvchi aholining eng faol qismi 30 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan odamlar ekanligi kuzatildi. Turizmning rivojlanishiga mamlakatdagi va butun dunyodagi siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq ijobiy va salbiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda olib bo'lgan tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun dam olishni yaxshilash va takomillashtirish bo'yicha bir qator tavsiyalarni taklif qilish o'rinli. Xususan, quyidagi qator chora-tadbirlar taklif etiladi:

- "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirishda sodiqlik dasturini yaratish, sayohat qilish va turli sayyohlik yo'nalishlariga tashrif buyurishda mahalliy va xorijliklar ball to'plash va turli chegirmalarga ega bo'lish imkoniyatini berish;

- viloyatdagi mehmonxonalarda "Hammasi inklyuziv" dasturini ishlab chiqish;

- turoperatorlar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlarni sug'urta qilish;

- hokimiyat tomonidan charter reyslar uchun QQSni bekor qilishda yordam berish chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, berilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirilishi kelgusi istiqbolda Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti hajmini oshishiga aholi bandligini ta'minlashga va turmush farovonligini yaxshilanishiga olib keladi. Surxondaryo viloyati hududlarida turizmni rivojlantirish dasturi doirasida



loyihalar rejalashtirilgan bo'lib, ularni amalga oshirish manbalari sifatida bank kreditlari, o'z va xorijiy mablag'lar evaziga bajarilishi ko'zda tutilgan (4-jadval).

4-jadval

**Surxondaryo viloyati turizmini rivojlantirish dasturi doirasidagi amalga oshirilgan loyiha natijalari**

No	Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022	2022-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
1.	Loyihalar soni	4	29	46	63	79	71
2.	Loyihaning umumiy qiymati, mlrd. so'm	20,8	149,5	162,1	287,6	1232,8	1168,5
3.	shundan,						
4.	Bank krediti, mlrd. so'm	8,2	49,2	78,1	110,2	273,2	254,5
5.	O'z mablag'i, mlrd. so'm	12,6	98,6	98,6	162,3	859,6	814,0
6.	Xorijiy mablag', mlrd. dollar		0,45	1,24	7,65	19,7	19,7
7.	Yaratilgan ish o'rinlari	128	372	747	1023	1398	1270

Jadval ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, 2010-yilda Surxondaryo viloyati turizmini rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshirilgan loyihalar soni 8 tani tashkil etib uning uchun 20,8 mlrd. so'm sarflangan va buning natijasida 128 ta ishchi o'rin yaratilgan.

2022-yilda Surxondaryo viloyati turizmini rivojlantirish dasturi doirasidagi amalga oshirilgan loyiha natijalari bo'yicha 79 ta loyiha 1232,8 mlrd. so'm mablag' ajratilib undan bank krediti – 243,2 mlrd. so'm, o'z mablag'lari – 859,6 mlrd. so'm va 19,7 mlrd. AQSh dollari xorijiy mablag'lar hisobidan ishlar amalga oshirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Viloyatda ekoturizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlovchi tadbirkorlik subektlari korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyati samaradorligini belgilab beruvchi umumiy muhit omillari, ishchi muhit omillari va ichki omillarni tahlil qilish asosida ekoturizm sohasini yetakchi tarmoqlardan biriga aylantirishga shart-sharoit yaratish, ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Viloyatda ekoturizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda mahalliy aholini turizm tadbirkorligiga faol jalb etish, norasmiy turizm tadbirkorligini baratarf etish, ekoturizm sohasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish uchun davlat tomonidan turizm ob'ektlarini barpo etishda 10 yilgacha soliqlardan ozod etish (Malayziya tajribasi), 10 yilgacha foizsiz kreditlar ajratish (Portugaliya tajribasi) yoki 20 yil muddatga past foizli kreditlar ajratish kabi imtiyozlarni qo'llash kerak, degan xulosaga keldik.

Surxondaryo viloyatida turizm salohiyati yetarli darajada bo'lib, undagi tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish kelajakda viloyat yalpi hududiy mahsulot tarkibida turizm ulushini oshirish hamda aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ковалская Л.Л. Оценка конкурентоспособности региона: монография/Л.Л. Кузнечная. – Луцк: Надстыре, 2007. – 420 с.
2. Данилишин Б.М. Экологическая составляющая политики устойчивого развития: монография / Б.М. Данилишин. – Донецк: Юго-Восток, ЛТД, 2008. – 256 с.
- 3.Ткаченко Т. И. Устойчивое развитие туризма: теория, методология, реалии бизнеса: монография / Т. И. Ткаченко. – 2-е изд., выпр. и дополн. – К.: Киев. нац. торг.-эконом. ун-т, 2009. – 463 с.
- 4.Дядечко Л. П. Экономический туристический бизнес. [Электронный ресурс] // – Режим друга: [http://tourlib.net/books\\_ukr/dyadechko13.htm](http://tourlib.net/books_ukr/dyadechko13.htm)
5. <https://www.atorus.ru/node/51037#:~:text>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

